



THE MAIN LAWS OF MONEY ACCUMULATION IN THE PROCESS OF DIGITAL TECHNOLOGIES

S. S. Khaydarova

Master's student

Tashkent State University of Economics

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: bananas and money, data from a Japanese scientist, poor man's fallacy, regression equation, savings, Fisher and Student's criterion

Received: 17.06.23

Accepted: 19.06.23

Published: 21.06.23

Abstract: In this article, there are several ways to accumulate money that meets human needs, the stages of transition from poverty to the rich class, solutions to failure, creating a regression equation and an error field, the measures of the head of our country to fight against poverty.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR JARAYONIDA PUL JAMG'ARISHNING ASOSIY QONUNIYATLARI

S. S. Xaydarova

Magistratura talabasi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: banan va pul, yapon olimi ma'lumotlari, kambag'allar xatosi, regressiya tenglamasi, jamg'arma, Fisher va Student me'zonlari

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson ehtiyojlarini qondiradigan pulni jamg'arishning bir nechta yo'llari, kambag'allikdan boylar tabaqasiga o'tish etaplari, muvaffaqiyatsizlikning yechimlari, regressiya tenglamasini va xatolik maydonini tuzish, davlatimiz rahbarining kambag'allikka qarshi kurashish to'g'risida chora-tadbirlari

ОСНОВНЫЕ ЗАКОНОМЕРНОСТИ НАКОПЛЕНИЯ ДЕНЕГ В ПРОЦЕССЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

С. С. Хайдарова

студент магистратуры

Ташкентский государственный экономический университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: бананы и деньги, данные японского ученого, ошибка бедняка, уравнение регрессии, сбережения, критерий Фишера и Стьюдента

Аннотация: В этой статье несколько способов накопления денег, отвечающих потребностям человека, этапы перехода от бедности к классу богатых, пути решения неудачи, создание уравнения регрессии и поля ошибок, меры главы нашей страны по борьбе против бедности.

KIRISH


Shiddat bilan o'sayotgan globallashuv jarayonida maqsadlarimizga yetishish, hayotda boshqalardan ortda qolmaslik uchun ma'lum bir qolipga solinmagan me'zonlar, hikmatli so'zlar, hamma ham aytayvermaydigan haqiqatlardan foydalanamiz. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan aholining ish bilan ta'minlanganligi, oylik yoki kunlik daromad egasi bo'lishlikka turtki bo'layotgan siyosat va oqilona iqtisod xalqni tabaqalarga ajralmay turishiga to'siq vazifasini bajarib kelmoqda. Insonlarga bir qop oltin yoki qimmatli hikmatlar bitilgan lavh taklif qilsangiz, shak-shubhasiz tillani tanlashadi, ular bilishmaydiki, hikmatlar - xazinaga olib boruvchi yo'lboshchi ekanligini. Biznesda ham xuddi me'zonlar biznesmenni boy yoki kasotga uchrashini belgilab beradi.

ASOSIY QISM

Robert Kiyosaki aytganidek, "Banan bilan pulni maymunni oldiga qo'ysang, u bananni tanlaydi, chunki maymunlar pul bilan ko'proq banan sotib olish mumkinligini bilmaydi. Ish bilan biznesni odamlarga taklif qilsang, ko'pchiligi ishni tanlaydi, chunki ular biznes oylikdan ko'proq foyda keltirishini bilmaydi. Foyda oylikdan yaxshiroq, chunki oylik bilan kuning o'tishi mumkin, lekin foyda seni boy qila oladi. (1)

Passiv daromad manbasini yaratish bu hayotda yaxshi yashash sharoitini ta'minlash demak, bu uchun albatta insonda moliyaviy savodxonlik tushunchasini bilish talab qilinadi. Moliyaviy savodxonlik bu, pulni to'g'ri yo'nalishlarga sarflash va moliyaviy maqsadni aniq qilib harakat qilish degani. Pulingiz bo'lsayu uni qay holda ishlatish yoki jamg'arma qilishni bilmasangiz ham bu siz uchun fojia hisoblanadi. Shuning uchun albatta bilimni kengaytirib keyin biror sohani qattiq ushlab usha sohada harakat qilishingiz kerak bo'ladi. Ko'pincha bu holatda insonlar bilib-bilmay o'zlari xabarsiz sohalarga pul tikishadi va natijada foyda ololmay, orqaga qaytishadi.

Kambag'allar hayotida doim ishlatadigan "boy bo'la olmayapman, omadsizligim hayotda yashashga to'sqinlik qilayapti" jumalari bilan o'zlarining odat tusiga aylanib qolgan xatolarini bir nechta keltiramiz,



1-rasm. Pul masalasida xatoga yo'l qo'yadigan insonlar ongidagi tushunchalar

Jorj Samuel Kleysonning “The richest man in Babylon” asarida qashshoqlikdan xalos bo'lishning moliyaviy qonunlarini, mablag' jamg'arish, saqlash va undan daromad olishni bilishda pulning sir asrorlaridan voqif bo'lish imkoniyati batafsil ochib ko'rsatilgan. O'quvchi kitobni mutolaa qilgan paytda boyish qonunlaridan xabardor bo'ladi, ya'ni beshta qonunga amal qilgan holda ishini boshlasa, demak bu hikmatli so'zlar oltinga ming karra tenglashtirilgan jumlar bo'ladi. (2)

Birinchi qonun, mehnat qilib topgan pulining o'ndan bir qismini o'zining va oilasining kelajagi uchun qayg'urib, bir chetga olib qo'yadigan kishiga pulning o'zi intiladi.


Ikkinchi qonun, tilla uni oqilona va puxta o'ylangan rejalarga dastmoya qilgan aqlli kishilarga naf keltiradi.

Uchinchi qonun, tilla himoyaga juda ham muhtoj, shu bois extiyotkorlikni va tajribali ustozlarning va bu sohada malakasi ko'proq insonlarning maslahatini ma'qul ko'radi.

To'rtinchi qonun, ishbilarmon – o'zi tushunmaydigan sohalarga ishlashga majburlashni tilla yoqtirmaydi.

Beshinchi qonun, oson boyishdek xom-hayol rejalari yetib bo'lmas havaslarga boyligini sarflagan kishidan tilla qochadi. Tilla deganda bu yerda umuman, pulni, sarmoyani nazarda tutilgan.

Demak shu yuqoridagi hikmatli soʻzlardan har bir boy boʻlish istagida yurgan insonlar xabardor boʻlishsa, kelajakda davlatimizga oʻz hissasini qoʻshadigan ishbilarmon tadbirkorlar va biznesmenlar yetishib chiqadi. Hattoki davlatimizda olib borilayotgan kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha chora-tadbirlar ham hammasi inson qadri va qimmati uchun qilinayotgan harakatdir.



2-rasm. Foydani taqsimlash etaplari va kelajakdagi rejalarga ajratilgan sarmoya

Kitobda yozilgan qonunlarning qanchalik ishonchli yoki ishonchsiz axborot ekanligini tekshirish uchun ishchi maoshi jamgʻarmasining regressiya tenglamasini tuzamiz va uni diagrammada qay darajada yuqorilashgani yoki quyilashganini kuzatamiz. Aslida buni oʻchab beradigan hozirgi raqamlashgan iqtisodiyotda bu masalani hisoblab beradigan programmalari borligini inobatga olib, biz Fisher va Student meʼzonlarida ham bu jamgʻarmaning qanchali samaradorligini isbotlab beramiz. (3)

Faraz qilaylik, ishchi maoshi oylik oʻrtacha 4mln atrofida, boyish qonunlaridan birida keltirilganidek, har oyda daromadning kamida 10foizi jamgʻarma uchun olib qoʻyilsin.

Bir yillik kuzatuv olib boradigan boʻlsak,

Jami jamgʻarma miqdori — Y,

Oylar — X

Quyidagi regressiya tenglamasini tuzamiz.


$$y = a + b * x$$

Oylar x	Jamg'arma miqdori y	$\sum (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})$	$\sum (x_i - \bar{x})^2$	$y(x_i)$	$\frac{1}{n} \sum \frac{ y(x_i) - y_i }{y_i}$
1	400 000	939 583,3	30,25	380 769,19	0,048
2	400 000	768 750,0	20,25	416 083,88	0,040
3	425 000	510 416,7	12,25	451 398,57	0,062
4	475 000	239 583,3	6,25	486 713,26	0,025
5	500 000	106 250,0	2,25	522 027,95	0,044
6	550 000	10 416,7	0,25	557 342,64	0,013
7	600 000	14 583,3	0,25	592 657,33	0,012
8	650 000	118 750,0	2,25	627 972,02	0,034
9	675 000	260 416,7	6,25	663 286,71	0,017
10	700 000	452 083,3	12,25	698 601,4	0,002
11	725 000	693 750,0	20,25	733 916,09	0,012
12	750 000	985 416,7	30,25	769 230,78	0,026
78	6 850 000	5 100 000	143		0,027

Bu formula kuzatuvimiz va regressiya tenglamasi o'rtasidagi xatolik koeffitsiyentini hisoblab beradi.

$$\frac{1}{n} \sum \frac{|y(x_i) - y_i|}{y_i}$$

Yuqoridagi hisoblarimizga ko'ra xatolik koeffitsiyenti 2 foizdan yuqoriroq chiqmoqda, fan doirasidan chiziqli funksiyada xatolik 5 foizdan kam bo'lsa, demak bizning regressiya tenglamamiz kuzatuvlarimizga juda yaqin ekanligini isbotlab berdi. Bu jadvaldan foydalanib kuzatuvimiz va regressiya tenglamamizning diagrammasini yaratamiz.



*-olib borilayotgan kuzatuv, jamg'arma miqdori

— - regressiya tenglamasi chizmasi

Bu chizmadan ko'rinib turibdiki, jamg'arma bir yilda yuqorilashgan va ularning bosh nuqtasi 4mingdan boshlangan edi, bir yilda bu boshlangan qadam yoniga bolalarini chaqirgani va

6mlndan ko'p bo'lgan sarmoyani o'z biznesi yoki oilasi uchun sarflashga anchagina miqdorda jamg'arib qo'yganligini ko'rdik.

Xar doim ham bu natijaga erishish insonlarga qiyindek tuyiladi, mashhur ixtirochi Charlz Kettering aytganidek, "Agar har doim kechagi kunni o'ylayversang, ertaga yaxshini olib bo'lmaydi". Albatta bu fikrni ko'proq ishi yurishmaydigan va doim tarix bilan ish yuritadigan insonlarga maslahat sifatida berilsa yaxshiroq bo'lardi. Sababi xozirgi rivojlanayotgan va raqamlashgan iqtisodiyot davrida kambag'allikni oldini olish eng ustuvor vazifa sifatida baholanadi. Hattoki Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" nomli kitoblarida ham bu sohada ijobiy natijaga erishish uchun bir qancha ustuvor vazifalarni rejalashtirganlar. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, 2030-yilgacha kambag'allik darajasini 2 barobar kamaytirish, kelgusi o'n yilda kambag'al oilalardagi ishsizlarni tadbirkorlikka jalb etgan holda, 500 ming yangi ish joylarini tashkil etish, ishsizlik darajasini 2 marta qisqartirish. Yuqoridagi masalalarga qo'shimcha qilib shuni aytish joizki, kambag'al xalqni boqimandalikka o'rgatish emas, aksincha ularni o'zlarini ustida ishlashlari va oilasining kelajagi uchun harakatda bo'lishlari, bu harakat negizida davlat ularga yetarlicha shart-sharoit yaratib berishini kitobda aniq qilib ko'rsatilgan. (4)

XULOSA

Biz tinimsiz foydalanayotgan ijtimoiy tarmoqlardan biri FACEBOOKga kamida 24 soatning 2-3 soati shu tarmoqqa sarflanadi, demak Mark Zuckerberg har bir sarflangan sonidan foyda olar ekan, nimaga aynan biz uni boy qilish uchun vaqtimizni bekorga sarflayapmiz? Tavakkalchilikka asoslangan ishni muvaffaqiyat garovi ekanligini shu inson ham ta'kidlagan. Nima sababdan ayrim odamlar boy bo'lishadi, boshqalar esa yo'q? Sabablardan biri ular xato qilishdan qo'rqishadi. Ulardagi xavotir, agarda boshlagan ishim o'xshamay qolsachi? Agarda xato qilishdan qo'rqsangiz rivojlanishdan ham to'xtaysiz. Siz hamma narsaga ishonch hosil qilishni xohlaysiz, tinchgina yashaysiz va xato qilmaslikka harakat qilasiz. Chunki maktabda shunday o'qitilgan. Xato qilmas ekansiz, o'rgana olmaysiz va bir joyda qotib qolasiz Visa assotsiyasining asoschisi va sobiq boshlig'I Du Xok shunday dedi, "Muommo har doim boshimizga yangi ijodiy fikrlarni kirgizishda emas, balki eskilarini quvib chiqarishdadir". (5) Demak, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish emas, aksincha, undan yaxshi tomonlarni izlab, qilgan xatoni takrorlamaslikda ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Robert Kiyosaki "Pul oqimi kvadranti" — *Boy otaning moliyaviy erkinlik bo'yicha qo'llanmasi* 2000. ISBN 0 — 446 — 67747 — 7.
2. Madрахimova, G. R. (2023). ISSUES OF INCREASING RESOURCE SAVINGS IN TEXTILE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN. *Oriental Journal of Economics, Finance and Management*, 3(03), 1-10.

3. Jorj Samuel Kleyson. Vavilonlik eng boy odam.”Nasaf” nashriyoti, 2010.
4. Rasulev D., Nurullaeva Sh., Ro'zmetova N., Muminova M. Ekonometrika asoslari, 2019.
5. Madrahimova, G. R. (2018). Comparative analysis of the sphere of services on the territory of the republic and the priority tasks of its development. *Economics and Innovative Technologies*, 2018(3), 13.
6. Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.
7. Filip Kotler. Marketing A dan Ya gacha. “Qamar”, 2022.